



THE IMPORTANCE OF WARNING WHEN USING FIREARMS IN ENSURING PUBLIC SAFETY

Lazizjon Komilov

Institute for Advanced Training of the Ministry of Internal Affairs

Instructor of the Combat Training Cycle, Captain

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: public safety, internal affairs bodies, National Guard, use of firearms, warning institution, human rights, international legal standards, preventive measures.

Received: 04.02.26

Accepted: 05.02.26

Published: 06.02.26

Abstract: This scientific article analyzes the legal foundations for the use of firearms by internal affairs bodies and the National Guard in ensuring public safety. The article examines the institution of warning a person prior to the application of coercive measures based on international and national legal norms. It identifies shortcomings in the normative consolidation of this requirement within national legislation. In addition, the significance of issuing warnings in ensuring human rights and strengthening public safety is substantiated, and scientific conclusions and proposals aimed at improving legislation are presented.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA O'QOTAR QUROLNI QO'LLASHDA OGOHLANTIRISHNING AHAMIYATI

Lazizjon Komilov

Jangovar tayyorgarlik sikli o'qituvchisi, kapitan

IIV Malaka oshirish instituti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: jamoat xavfsizligi, ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, o'qotar qurolni qo'llash, ogohlantirish instituti, inson huquqlari, xalqaro huquqiy standartlar, preventiv.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlash jarayonida ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari tomonidan o'qotar qurolni qo'llashning huquqiy asoslari tahlil qilingan. Ilmiy maqolada majburlov choralarini qo'llashdan avval shaxsni ogohlantirish instituti xalqaro va milliy huquq normalari asosida o'rganilgan. Milliy qonunchilikda ushbu talabning yetarli

darajada normativ mustahkamlanmaganlik jihatlari aniqlangan. Shuningdek, ogohlantirish berishda inson huquqlarini ta'minlash va jamoat xavfsizligini mustahkamlashdagi ahamiyati asoslab berilgan va qonunchilikni takomillashtirishga doir ilmiy xulosalar va takliflar ilgari surilgan.

ЗНАЧЕНИЕ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ ОГНЕСТРЕЛЬНОГО ОРУЖИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Лазизжон Комилов

Институт повышения квалификации МВД

преподаватель цикла боевой подготовки, капитан

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: общественная безопасность, органы внутренних дел, Национальная гвардия, применение огнестрельного оружия, институт предупреждения, права человека, международные правовые стандарты, превентивность.

Аннотация: В данной научной статье анализируются правовые основы применения огнестрельного оружия органами внутренних дел и Национальной гвардией в процессе обеспечения общественной безопасности. В статье институт предупреждения лица перед применением мер принуждения рассматривается на основе норм международного и национального права. Выявлены аспекты недостаточной нормативной закреплённости данного требования в национальном законодательстве. Также обосновано значение предупреждения в обеспечении прав человека и укреплении общественной безопасности, сформулированы научные выводы и предложения по совершенствованию законодательства.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi o'zining siyosiy faoliyatida huquqni muhofaza qiluvchi organlari xalqaro standartlariga sodiqlikni namoyon etishni davom ettirmoqda. Bu birinchi o'rinda, demokratik islohotlar, huquqiy davlatchilikni shakllantirish, siyosiy va mafkuraviy plyuralizmni e'lon qilish bilan va nihoyat, insonning va erkinliklarini qadriyat deb, konstitutsiyaviy tarzda e'tirof etish bilan bog'liqdir.

Hozirda Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida tinchlik, osoyishtalik va jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha izchil siyosat olib borilmoqda. Shu maqsadda 2021-yil 29-noyabrda O'zbekiston Respublikasining Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi qabul qilingan bo'lib, bu hujjatda jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining muhim strategik

yo‘nalishlari belgilandi. Konsepsiya jamoat xavfsizligini ta‘minlash va aholini har qanday tahdidlardan kafolatli himoya qilish orqali jamiyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlashni ko‘zlaydi [1].

Darhaqiqat, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni mustahkamlash bo‘yicha davlat siyosatining ustuvorligini qayd etib, “Biz O‘zbekiston sharoitida “Barcha islohot va o‘zgarishlar — inson qadrini yuksaltirish uchun” degan ezgu tamoyilga sodiq qolgan holda shu yo‘lda boshlagan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur. Bu borada o‘tgan davrda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida yaratilgan mustahkam huquqiy bazaga tayanamiz.” [2] degan fikr bildirilgan. Bunday kelib chiqib aytish mumkinki, Prezident rahbarligi ostida olib borilayotgan chora-tadbirlar davlat xavfsizligining eng muhim yo‘nalishlaridan biri — jamoat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda davlat tomonidan huquq sohasidagi islohotlar qonun ustuvorligini ta‘minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash, hamda ijtimoiy himoyani kuchaytirishga qaratilgan. Shu bilan birga, jamoat xavfsizligini ta‘minlash subyektlari hisoblangan ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya o‘z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarishda jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalar va o‘qotar qurolni qo‘llashlari “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi [3] va “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi [4] Qonunlarda o‘z aksini topgan. Albatta, jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni qo‘llash zaruriy choralar, o‘qotar qurolni qo‘llash esa oxirgi chora hisoblanib, ular faqat qonun bilan belgilangan holatlarda va tartibda qo‘llanilishi mumkin. Bu huquqlar insonning hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga zarar yetkazish bilan bog‘liq bo‘lib, bu huquqlarni amalga oshirishda avval ularni qo‘llash bo‘yicha aniq ifodalangan ogohlantirish berish – harakatdan oldingi zaruriy shart bo‘lib xizmat qiladi.

Metodologiya va adabiyotlar. Ushbu ilmiy maqola huquqiy-nazariy yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida jamoat xavfsizligini ta‘minlash subyektlari tomonidan o‘qotar qurolni qo‘llashda ogohlantirish masalasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar normativ-huquqiy hamda formal-huquqiy tahlil metodlari asosida o‘rganildi. Mazkur huquqiy normalar tizimli tahlil metodi yordamida yagona huquqiy mexanizm sifatida tahlil qilindi. Shuningdek, o‘qotar qurolni qo‘llashda ogohlantirish berish mantiqiy-huquqiy tahlil metodi orqali o‘rganib chiqildi. Milliy qonunchilik normalari xalqaro huquqiy hujjatlar bilan qiyosiy-huquqiy metod asosida solishtirildi.

Muhokama. Barcha huquqiy demokratik jamiyatlarda jamoat xavfsizligini ta‘minlash o‘zaro hurmat va ishonchga asoslanadi. Bu esa nafaqat davlat organlari, balki fuqarolarning ham roziligi va ishonchi bilan faoliyat yuritish demakdir. Xorijiy tajriba shundan dalolat bermoqdaki, xalqaro jamiyat taraqqiyoti borasidagi ilmiy izlanishlar jahon miqyosida fuqarolik jamiyati rivojlanishini tahlil etish, milliy davlat va huquq sohaslarining huquqiy asoslarini

takomillashtirish, jamiyat, davlat va fuqarolik institutlari mutanosibligi masalalarini yaqindan o'rganishga qaratilgan. Shu bilan birga, davlatlarning huquqiy rivojlanish qonuniyatlari, xalqlarning tarixiy, –milliy va ma'naviy qadriyatlari, dunyoqarashi, urf-odatlar, mentaliteti, shuningdek, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari kabi jihatlar, albatta hisobga olinishi lozim [5].

Mazkur jihatlarining barchasi davlat tomonidan jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni huquqiy jihatdan aniq tartibga solish zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, jamoat tartibini saqlash jarayonida davlatning majburlov vakolatlarini amalga oshiruvchi subyektlar faoliyati qat'iy huquqiy asoslar, aniq mezonlar va mas'uliyat mexanizmlariga tayangan holda olib borilishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qo'llaniladigan ta'sir choralari, jumladan jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalar va o'qotar qurolni qo'llash masalalariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Shu ma'noda, o'qotar qurolni qo'llash tartibining qonun bilan belgilanishi nafaqat jamoat xavfsizligini ta'minlashning samaradorligini oshirishga, balki fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini ishonchli himoya qilishga ham xizmat qiladi. Mazkur chorani qo'llashda ehtiyotkorlik, mutanosiblik va ogohlantirish kabi huquqiy mexanizmlarning mavjudligi davlat majburlovining inson huquqlari bilan uyg'unligini ta'minlab, jamiyatda qonun ustuvorligi va jamoat xavfsizligi ta'minlash subyektlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ogohlantirish berish orqali jamoat xavfsizligini ta'minlash subyektlari xodimlari fuqaroga o'z xatti-harakatlarini qonuniy yo'l bilan to'xtatish yoki to'g'rilash imkonini beradi. Bu nafaqat inson huquqlarini hurmat qilish tamoyilidir, balki vaziyatni bexatar va tinch yo'l bilan hal etishga xizmat qiladigan samarali vositadir. Xodim tomonidan ogohlantirish berish ziddiyatlarni keskinlashtirmaydi, aksincha ularni tinch yo'l bilan hal qilishga undaydi. Bu huquqiy va ma'naviy tamoyil jamiyatimizda barqaror jamoat tartibini yaratishning poydevoridir.

Ogohlantirishning o'ziga xos ahamiyati shundan iboratki, bu orqali ziddiyatni oldindan bartaraf etish va qonuniy yo'l bilan hal etishga imkoniyati mavjud bo'ladi. Ogohlantirish berish vaziyatni tinch yo'l bilan hal etishga bo'lgan ijobiy signal hisoblanadi. Shuningdek, ogohlantirish instituti jamoat xavfsizligi subyektlari va fuqarolar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlovchi omil hisoblanadi. Va nihoyat, u huquqiy davlat tamoyillarini amalda qo'llashga xizmat qiladi. Ya'ni, har bir ogohlantirish bu fuqarolarning hayoti, sog'ligi va huquqlari uchun berilgan maqbul signaldir. Shu yo'l orqali barqaror jamoat xavfsizligi ta'minlanadi, jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlanadi va inson manfaatlarini himoya qilinadi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar mansabdor shaxslari tomonidan kuch va o'qotar qurolni qo'llash bo'yicha Asosiy Tamoyillarning 10-tamoyiliga muvofiq, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o'q uzishdan oldin o'zini shunday sifatida tanishtirishi va quroldan

foydalanish niyatini aniq ogohlantirishi, ogohlantirishni qabul qilish uchun yetarli vaqt berishi lozim. Biroq, agar bu xodimning o'zini ortiqcha xavf ostiga qo'ysa yoki boshqa shaxslarga nisbatan o'lim yoki og'ir tan jarohati xavfini yuzaga keltirsa, yoxud voqea sharoitida aniq ravishda noo'rin yoki ma'nosiz bo'lsa, ogohlantirish talab etilmaydi [6]. Masalan, nishon allaqachon o'q uzayotgan bo'lsa, ogohlantirish berish mutlaqo befoyda hisoblanadi.

Albatta, xalqaro tajribaga ko'ra, huquqni muhofaza qiliuvchi organlar xodimlari o'qotar qurolni qo'llashdan avval, o'zlarini aniq tanishtirishlari va o'qotar qurolni qo'llash niyatini aniq ifodalangan ogohlantirish orqali bildirishlari va ogohlantirishga javob berilishi uchun yetarli vaqt berishlari lozim.

Bunday ogohlantirish quyidagi holatlar bundan mustasno:

- ogohlantirishning o'zi huquqni muhofaza qiluvchi xodimlarning xavfsizligini jiddiy xavf ostiga qo'yishi mumkin bo'lsa;
- boshqa shaxslarga nisbatan o'lim yoki og'ir tan jarohatlari yetkazilishi xavfini tug'dirsa;
- yoki voqeaning xususiyatidan kelib chiqib, ogohlantirish mutlaqo noo'rin yoki befoyda bo'lsa [7].

Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida ham politsiya xodimi tomonidan o'qotar qurolni qo'llashdan avval o'zlarini aniq tanishtirishlari va uni qo'llash niyatini aniq ifodalagan ogohlantirish berishlari va ogohlantirishga tushunish uchun yetarli vaqt berishlari lozimligi keltirilgan [8]. Albatta, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalar va o'qotar qurolni qo'llashdan avval, imkon qadar, o'zini tanishtirishi shart. Bu talab huquqiy davlat tamoyillariga asoslangan holda fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Ayniqsa, o'qotar qurolni qo'llash eng og'ir va qaytarib bo'lmas oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan chora bo'lgani sababli, uni qo'llashdan oldin xodimining o'zini tanishtirishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Politsiya xodimi o'zini tanishtirish orqali vakolatli shaxs ekanini bildiradi, qonuniy talabni kim qo'yayotganini aniq ko'rsatadi va vaziyatni tinch yo'l bilan hal qilish uchun fuqaroga real imkon yaratadi. O'qotar qurolni qo'llashdan avval ogohlantirish va o'zini tanishtirish ko'pincha huquqbuzarning noqonuniy harakatlarini to'xtatishga, qarshilikni bartaraf etishga va qurol qo'llamasdan vaziyatni nazoratga olishga xizmat qiladi. Shu sababli, xalqaro tajriba o'qotar qurolni qo'llashdan oldin, agar vaziyat bunga yo'l qo'ysa, o'z lavozimini, familiyasini aytishni va qonuniy talabni aniq bayon etishni majburiy talab sifatida belgilaydi.

Umuman olganda, jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o'qotar qurolni qo'llash davlat majburlov choralarning eng keskin shakllaridan biri bo'lib, u shaxsning hayoti, sog'lig'i va sha'niga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli zamonaviy huquqiy davlatlarda bunday choralarni qo'llash faqat zarur hollarda va aniq protsessual kafolatlar asosida amalga oshiriladi.

Ana shunday muhim kafolatlardan biri — bu kuch ishlatishdan avval shaxsni ogohlantirish va ushbu ogohlantirishni anglab yetishi uchun yetarli vaqt berish talabidir.

Ogohlantirishning o'zi majburlov choralarini qonuniylashtiruvchi minimal shart bo'lsa, uni tushunish uchun vaqt berish mazkur talabni real va samarali huquqiy mexanizmga aylantiradi. Chunki shaxs faqat ogohlantirishni eshitibgina qolmasdan, balki uning mazmunini anglab, o'z xatti-harakatini ixtiyoriy ravishda qonuniy talablarga moslashtirish imkoniga ega bo'lishi lozim. Bu yondashuv majburlov choralarini qo'llashni jazolovchi xarakterdan ko'ra, oldini oluvchi (preventiv) vositaga aylantiradi.

Natija. Xalqaro tajriba tahlil qilinar ekan, O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlash subyektlari hisoblangan ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya qonunchiligida xodimlar tomonidan jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o'qotar qurolni qo'llashdan avval ogohlantirish berish majburiyati nazarda tutilgan bo'lsa-da, ogohlantirishni tushunish va unga mos ravishda harakat qilish uchun yetarli vaqt berish talabi normativ jihatdan mustahkamlanmagan. Bu esa, ogohlantirish berish ko'pincha formal xarakter kasb etib, real huquqiy kafolat vazifasini bajarmay qolishiga olib keladi mumkin. Bunday holat majburlov choralarining haddan tashqari tez va keskin qo'llanishiga olib kelish xavfini oshiradi. Shu bilan birga, O'zbekiston ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya kadrlar amaliyotida chaqqon (шустрый) tabiatli xodimlarga talab yuqori ekanligi mazkur xavfni yanada reallashtirib yuboradi. Vaholanki, ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari xodimlari faoliyati inson hayoti, sog'lig'i va taqdiri bilan daxldor bo'lganligi munosabati bilan chaqqonlik tabiati bilan birga mulohazakorlik fazilatini ham takomillashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lmog'i zarur.

Agarda ichki ishlar va Milliy gvardiya huquqni qo'llash amaliyotiga ogohlantirishni tushunish uchun vaqt berish instituti joriy etilsa, bu inson huquqlarini ta'minlash sohasida bir qator ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Avvalo, shaxsning yashash huquqi va sog'lig'i kuchliroq himoya qilinadi, chunki u qonuniy talabni bajarish orqali unga nisbatan kuch ishlatilishining oldini olish imkoniga ega bo'ladi. Ikkinchidan, ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya faoliyatida mutanosiblik va zarurat tamoyillari kuchayadi, bu esa zo'ravonlik holatlarining kamayishiga xizmat qiladi. Uchinchidan, bunday mexanizm fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini oshiradi, chunki majburlov choralarining qo'llanishi tushunarli, oldindan bashorat qilinadigan va adolatli tus oladi.

Ilmiy nuqtayi nazardan, ogohlantirishni tushunish uchun vaqt berish talabi shaxsning huquq subyekti sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi va uni majburlov obyektiga darajasiga tushirib qo'ymaslikka xizmat qiladi. Bu yondashuv huquqni muhofaza qilish faoliyatini agressiv modeldan huquqiy, insonparvar va profilaktik modelga o'tkazishning muhim vositasi hisoblanadi. Zero, Taraqqiyot strategiyasining 17-maqsadida belgilanganidek, O'zbekistonda "Huquqni muhofaza

qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlarini, inson qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish" [9] bo'yicha dadil qadamlar tashlangan.

Shu bois mazkur institutni ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya qonunchiligiga joriy etish inson huquqlarini ta'minlashning milliy mexanizmlarini xalqaro standartlarga yaqinlashtiruvchi muhim qadam bo'ladi va qonunchilikni quyidagi tartibda o'zgartirish taklif etiladi:

"Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunning 5-bobi 21-moddasi

4-xatboshisini:

(taklif etilayotgan holat) Ichki ishlar organi xodimi jismoniy kuch ishlatilishi, maxsus vositalar va o'qotar qurol qo'llanilishidan avval ushbu choralar qo'llanilishi ko'zda tutilayotgan shaxslarga o'zining ichki ishlar organi xodimi ekanligini ma'lum qilishi, ularni qo'llash niyati to'g'risida ogohlantirishi hamda ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarishlari uchun ularga imkoniyat va yetarli vaqt berishi kerak, bundan ushbu ogohlantirishning imkoni bo'lmagan yoxud ularning qo'llanilishini kechiktirish fuqarolarning va ichki ishlar organi xodimining hayoti va sog'lig'iga bevosita xavf tug'diradigan hamda boshqa og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan hollar mustasno.

(amaldagi holat) Jismoniy kuch ishlatilishi, maxsus vositalar va o'qotar qurol qo'llanilishidan avval ularni qo'llash niyati to'g'risida aniq ifodalangan ogohlantirish bo'lishi kerak, bundan ushbu ogohlantirishning imkoni bo'lmagan yoxud ularning qo'llanilishini kechiktirish fuqarolarning va ichki ishlar organi xodimining hayoti va sog'lig'iga bevosita xavf tug'diradigan hamda boshqa og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan hollar mustasno.

"O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi Qonunning 6-bobi 28-moddasi 3-xatboshisini:

(taklif etilayotgan holat) Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi (xodimi) jismoniy kuch ishlatilishi, maxsus vositalar va o'qotar qurol qo'llanilishidan avval ushbu choralar qo'llanilishi ko'zda tutilayotgan shaxslarga o'zining Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi (xodimi) ekanligini ma'lum qilishi, ularni qo'llash niyati to'g'risida ogohlantirishi hamda Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi (xodimi)ning qonuniy talablarini bajarishlari uchun ularga imkoniyat va yetarli vaqt berishi kerak, bundan ushbu ogohlantirishning imkoni bo'lmagan yoki ularning qo'llanilishidagi sustkashlik fuqarolarning, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining (xodimlarining) hayoti hamda sog'lig'iga bevosita xavf soladigan va boshqa og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan hollar mustasno.

(amaldagi holat) Jismoniy kuch ishlatilishi, maxsus vositalar va o'qotar qurol qo'llanilishidan avval ularni qo'llash niyati to'g'risida aniq ifodalangan ogohlantirish bo'lishi

kerak, bundan ushbu ogohlantirishning imkoni bo'lmagan yoki ularning qo'llanilishidagi sustkashlik fuqarolarning, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining (xodimlarining) hayoti hamda sog'lig'iga bevosita xavf soladigan va boshqa og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan hollar mustasno.

Xulosa. Jamoat xavfsizligini ta'minlash jarayonida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalar va o'qotar qurolni qo'llash masalalari aniq huquqiy kafolatlar asosida tartibga solinishi lozim. Xalqaro huquqiy standartlar majburlov choralari qo'llashdan avval shaxsni ogohlantirish, vakolatli mansabdor shaxs sifatida tanishtirish hamda qonuniy talabni ixtiyoriy bajarish uchun real imkon yaratishni muhim tamoyil sifatida e'tirof etadi.

Ogohlantirishni tushunish uchun vaqt berish talabi huquqni ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya faoliyatini insonparvarlashtirishga xizmat qiladi, majburlov choralari profilaktik xususiyatini kuchaytiradi hamda fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Shu bois ushbu institutni ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikka kiritish jamoat xavfsizligini ta'minlashning huquqiy mexanizmlarini yangi bosqichga olib chiqishga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son farmoni
2. Maqola / Ichki ishlar tizimidagi islohotlarimizni xalqimiz sezishi shart – prezident: Elektron resurs – Rejim kirish <https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/25/ichki-ishlar/> (murojaat etilgan sana 27.01.2026-yil);
3. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son Qonuni – T.: Yuridik adabiyotlar publish, 2023;
4. Elektron resurs – Rejim kirish: <https://lex.uz/mact/-5128310> (murojaat qilingan sana 27.01.2026);
5. Maqola / Davlat dasturi va huquqiy islohotlar zarurati / Elektron resurs – Rejim kirish: <http://pravacheloveka.uz/oz/news/davlat-dasturi-va-huquqiy-islohotlar-zarurati> (murojaat qilingan sana 27.01.2026);
6. Birlashgan Millatlar Tashkilotining jinoyatchilikni oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha 1990-yil 27-avgust
– 7-sentabrda Kubaning Gavana shahrida o'tkazilgan Sakkizinchi Kongressidagi "Huquqni muhofaza qiluvchi mansabdor shaxslar tomonidan kuch va o'qotar qurol qo'llash bo'yicha asosiy tamoyillar";

7. BMTning “Huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan kuch va o‘qotar qurollardan foydalanish bo‘yicha qo‘llanmasi” Rejim kirish – Elektron resurs: https://www.unodc.org/documents/justice-and-prison-reform/17-03483_ebook.pdf (murojaat qilingan sana 29.01.2026-yil);

8. 2011-yil 7-fevraldagi Rossiya Federatsiyasining “Politsiya to‘g‘risida”gi N3-FZ Federal Qonuni 19-moddasi 1-xatboshisi / Elektron resurs – Rejim kirish: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_110165 (murojaat qilingan sana 29.01.2026-yil);

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni